
TASHABBUS VA NATIJA

Yurtning obodligi, xalqning farovonligi mahalla va qishloqlardan boshlanishi bor gap. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hayotga izchil tatbiq etilayotgan “Mahallabay ishlash” dasturi bugun chekka-chekka hududlardagi aholi punktlarida barpo etilayotgan zamonaviy uy-joylar, ta’lim muassasalari, dam olish maskanlariyu qator xizmat ko’rsatish shoxobchalarining yangicha qiyofasida o’zining yorqin ifodasini topmoqda. Odamlarning hayotdan mamnunligi, shaharlardagidek qulaylik va imkoniyatlarga ega bo’lgan zamonaviy maskanlarda yashayotganidan shodonlik hissi zamirida bir haqiqat — qishloqlarni obod qilish yo’lidagi islohotlar yotibdi, desak mubolag’aga yo’ymang. Ana shunday hududlardan biri anklav hudud sanalgan — Cho’ng’ara qishlog’i bo’ladi. Bugun yangicha qiyofa kasb etayotgan bu joylar kishida go’yo endigina paydo bo’lgandek tasavvur uyg’otadi. Ammo bu o’sha — cho’ng’araliklarning qadimiy va qadrdon qishlog’i. Faqat endi u zamonaviy ko’rinishda, barcha qulaylik, shart-sharoitlarga ega maskanga aylanib bormoqda. Ma’lumki, 24 may kuni viloyat hokimi Rishton tumani anklav hududi sanalgan Cho’ng’ara qishlog’iga tashrifi chog’ida ushbu mahallada yashovchi “Ayollar daftari”ga kiritilgan 7 nafar xotin-qizlarning bandligini ta’minlash maqsadida tikuv mashinalari topshirilgan edi. Albatta, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va islohotlarning tuman hokimligi tomonidan tizimli ravishda ijro etib borilishi ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarimiz qalbiga quvonch olib kirdi. Ajratilgan tikuv mashinasi olgan opa-singillarimiz ularga qaratilayotgan bu e’tibor uchun davlatimiz rahbaridan va barcha mas’ullardan minnatdor bo’lmoqdalar. Bugungi kunda ular Cho’ng’ara qishlog’ida yangi ish o’rinlarni yaratib, Qishloqda yashovchi chevarlar hamda yangi ish o’rganib, qo’li kelishgan tikuvchilar mana shunday zamonaviy tikuv mashinalarida mehnat qilib, ro’zg’origa baraka kiritmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-06-24 17:56:11